

Virtual Nutqiy Muloqot Va Uning O'Ziga Xos Xususiyatlari

Isroilova Barchinoy Abdug'appon qizi¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada virtual nutqiy muloqot turi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: muloqot, virtual muloqot, jonli muloqot, vosita, xususiyat, nutqiy vaziyat.

Til – jamiyatning barcha a'zolarini birlashtiradigan ijtimoiy hodisa bo'lib, unda jamiyat a'zolarining dunyoni anglash jarayonida to'plagan lingvistik va madaniy bilimlari o'z aksini topadi. Asrlar davomida shakllangan qadriyatlar, urf – odatlar jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarining in'ikosi sifatida avloddan avlodga o'tib boradi.

Nutqiy muloqot bevosita inson faoliyati bilan bog'liq holda kechadigan jarayondir. Inson ana shu nutqiy muloqot davomida til iste'molchisi sifatida o'zini namoyon etadi. Ya'ni, bu holatda insonning borliqni anglashi, tafakkur darajasi, munosabati, bahosi, ruhiy olami, his-tuyg'ulari, madaniyati, saviyasi kabi o'ziga xos, individual jihatlari yuzaga chiqadi. Har bir til tashuvchisi(masalan rus, o'zbek, qozoq) lisoniy shaxs sifatida o'ziga xos tarzda tildan foydalanish imkoniyatiga ega.

Aytish mumkinki, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Bu esa, o'z navbatida, xalqning turmush darajasininig oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu masala davlat ahamiyati darajasida bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Internet yagona global tarmoq sifatida tobora jamiyatda yetakchi kuchga aylanib bormoqda. Bu borada A.S.Trach ... internet, ya'ni cheksiz muloqot tarmog'ining shakllanishi natijasida qandaydir ma'noda yozma (vizual) va qaysidir ma'noda og'zaki bo'lgan ma'lum bir oraliq muloqot turining paydo bo'lganligini alohida ta'kidlab,[1.B.34] bu muloqotga xos xususiyatlar sifatida qabul qilish usuliga ko'ra *visual*, ya'ni ko'zlar orqali qabul qilish, suhbat davomida uzoq vaqt tanaffus qilish mumkinligi (sinxron), yuzma-yuz og'zaki muloqot jarayonida esa bu holning yuz bermasligi, shuningdek, xabar jo'natuvchi javobni tezlik bilan olishi yoki uzoq kutishi mumkinligi, yozma matnning darhol uzatilishi va qabul qilinishi, biroq adresatning bandligi, elektron pochtaga kirish imkoniyati, texnik muammolar, vaqt farqlari va boshqa sabablarga ko'ra bir necha kun ichida javob olishi mumkinligi kabi jihatlarni ko'rsatib o'tadi.

Internet – muloqoti insonlar o'rtasidagi muloqotida yangicha o'lchamini ochib berdi. U katta hajmdagi axborotlarni saqlash va tez uzatish, audio va video aloqa kanallaridan foydalanish va onlayn rejimida muloqot qilish imkonini yaratib berdi. Virtual muloqot boshqa muloqot turlari kabi bir necha xil xususiyatlarga ega.[1.B.39]Masalan, qamrovi nuqtayi nazaridan kompyuter muloqot ommaviy (butun dunyo bilan aloqa), ichki shaxsiy (foydalanuvchi va kompyuter o'rtasidagi aloqa) va guruhli muloqot ko'rinishiga ega. Vaqt omilini, ya'ni muloqot jarayonining davomiyligini hisobga olgan holda kompyuter muloqot qisqa (elektron pochta orqali xabarni olish) yoki vaqt bo'yicha cheklanmagan (Internet- konferensiyalarda ishtirok etish) bo'lishi mumkin. Shakliga ko'ra kompyuter muloqot og'zaki (ovozli modem) va yozma (matn va grafik) ga bo'linadi. Grafik shakl – harflardan tashqari boshqa tasvirlar, diagrammalar va hokazolarni uzatishni anglatadi. Muloqot usuliga ko'ra kompyuterli aloqa vositali aloqa hisoblanadi, chunki u texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Axborotni uzatish va idrok qilish kanaliga ko'ra kompyuter muloqoti haqiqiy (real insonlar bilan muloqot) va virtual (noma'lum, hayoliy suhbatdoshlar bilan muloqot) ga bo'linadi.[1.B.39] Yuqoridagi nazariy fikrlarni umumlashtirgan holda R. Xalilova kompyuter muloqotning nazariy modelini quyidagi omillarga asoslanib tasvirlash mumkin deb hisoblaydi:[2.B.79]



qamrovi bo'yicha (ommaviy, guruhli va interpersonal);
vaqtga asoslangan (qisqa va chegaralanmagan vaqt ichida);
yozma (matnli va grafik) va og'zaki (audio modemdanda foydalangan holda) shaklda;
uzatish kanali bo'yicha (haqiqiy, virtual) ;
aloqa usuliga ko'ra(har doim bilvosita).

Muallif virtual muloqotning shaxsga yo'naltirilgan (elektron pochta yozishmalari) yoki maqomga yo'naltirilgan (turli mavzulardagi konferensiyalardagi muloqot: siyosat, sport, tibbiyot, fan va boshqalar) bo'lishi mumkinligi hamda unda nutqning barcha turlariga oid xususiyatlar mavjud bo'lsa-da, nutqning kompyuter turi ommaviy muloqot bilan ko'p bog'liqlik jihatlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar u bilan to'la mos kelmasligini ta'kidlab o'tadi.

M.Madaminova internet muloqoti ijtimoiy munosabatlarning nisbatan yangi maydoni bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida butun insoniyatni qamrab olganligi, bu esa internet tarmog'ida muloqot tizimi, foydalanuvchilarning o'zaro munosabatlari, virtual jamoatchilikning shakllanishi, shaxsning qay tarzda o'zligini namoyon qilishi, nutqiy ta'sir kabi qator masalalarni keltirib chiqarganligi natijasida bu jarayon tilshunoslikning psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalolingvistika kabi bir qator yo'nalishlari uchun tadqiqot obyektiga aylanib ulguraganligini va so'nggi yillarda tilshunoslik sohasida internet tarmog'idagi muloqot muammosini o'rganishga qiziqishning ortib borayotganligini e'tirof etadi.[3. B.570] Muallif internet muloqotini batafsil tadqiq etishga intilishning sabablaridan biri sifatida an'anaviy muloqot me'yorlaridan farq qiladigan tamoyillar shakllanayotgan ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, blogerlarning faol ommalashishini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, tadqiqotchilarning fikricha, bugungi jamiyat hayotidagi internetning asosiy maqsadi bo'lgan ma'lumot olish vazifasi keyingi planga o'tib, muloqot maydoni sifatidagi belgisi ortib borayotganligini alohida uqtiradi. Shu nuqtayi nazardan, internet diskursi kommunikantlarning birgalikdagi tezkor va samarali faoliyatini ta'minlovchi nostandart muloqot shakli deb hisoblash mumkin. Internet muloqotida nutqning informativ fatik, ixtiyoriy funksiyalarini amalga oshirishning o'ziga xosligini shaxsiyat, e'tiroz, ustunlik, hamdardlik, hissiylik, mavjud stereotiplar va idrok mexanizmlarining o'zgarishi kabi tamoyillar belgilashini bayon etadi.

Virtual nutqiy muloqot oddiy nutqiy muloqot kabi uch tarkibiy qismdan iborat:[3.B.570] muloqotni boshlash, muloqotni saqlash va muloqotni yakunlash. Foydalanuvchi o'zbek tili chatining virtual muloqot makonida o'z borlig'ini ifodalovchi til va pragmatik qoidalariga asoslanib muloqotni amalga oshiradi. Virtual suhbatni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. muloqotning ommaviy xarakteri;
2. aloqa yo'nalishi: ko'pdan ko'pgacha;
3. sinxron aloqa;
4. xabar oluvchiga xabar berishning o'rtacha tezligi;
5. xabar shakli va mazmuniga qat'iy talablarning yo'qligi.

Virtual maydondagi muloqot jarayonini shakllantiradigan omillarni guruhlaydigan bo'lsak, bir qator imkoniyatlarni ko'rish mumkin:

- 1) kommunikator omili (mazkur jarayonga ta'sir etuvchi maqsad va vazifalarni belgilaydi);
- 2) maqsadli auditoriya omili (adresat maqsadlarini belgilaydi);
- 3) muloqot kanali omili (cheklovchilar sifatida maydonga chiqadigan, mazkur kanal standartlarini belgilaydi).

Virtual maydondagi nutqiy muloqotning obyekti "chat" tizimidagi amalga oshiriladigan kompyuter muloqotidir. Bu jarayonda kompyuter orqali kishilar o'zaro muloqotga kirishadilar. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar insonga tobora ko'proq imkoniyatlar eshiklarini ochib bermoqda desak,



mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni yuqori aqlli texnologiyalar ko'plab vazifalarni soddalashtirdi, juda ko'p turli xil ma'lumotlarga kirishni ta'minladi, hayotiy jarayonlarni qulaylashtirdi. Texnologiyaning rivojlanishi va Internet tarmog'ining paydo bo'lishi, o'z navbatida, shaxslararo muloqot doirasini yanada kengayishiga sabab bo'lmoqda, shuningdek, turli xil yuqori texnologik qurilmalar va mobil telefonlar nafaqat eshitish, balki suhbatdoshni bir necha ming kilometrlardan ham ko'ra olish imkonini yaratib bermoqda.

Virtual aloqa-bu kontaktsiz (Internet, mobil telefon) kundalik aloqa rejimida amalga oshiriladigan aloqa amaliyotining bir turidir. Virtual aloqa uchun asosiy vosita Internet – platforma, ijtimoiy tarmoqlardir (Twitter, Facebook, Telegram, Skype, Odnoklassniki, V Kontakte va WhatsApp ijtimoiy tarmoqlar). Yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligidan qat'i nazar, bu tarmoqlar orqali yaqinlarimiz bilan doimiy aloqada bo'lish va qarindoshlar, eski tanishlar bilan yo'qolgan aloqalarni tiklash, tanishlar doirasini kengaytirish imkoniyatiga egamiz.

Hozirda virtual muloqot deganda, asosiy e'tibor ko'proq internetdan foydalanishning salbiy oqibatlari, ya'ni afzalliklari va yoki kamchiliklari haqidagi qarashlarga qaratilgan deyish mumkin. Lekin bu o'rinda masalaning eng nozik nuqtasi sifatida *kommunikantlarning lisoniy va nutqiy me'yorga amal qilish hamda undan to'g'ri foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, shuningdek, lisoniy shaxsga (LSh) xos belgilarning shakllanganlik darajasi kabi o'ta dolzarb antropotsentrik xususiyatlar* tahlili va tadqiqiga asosiy e'tiborni qaratmoq lozim. Internet muloqoti va uning haqiqiy muloqotga nisbatan yutuqlari hamda kamchiliklari kabi masalalar asosiy muammo sifatida ko'rilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ana shu jihatdan yondashganda, **virtual muloqotning o'ziga xos jihatlari** sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Globallashuvga hissa qo'shadigan aloqa vositasi
2. Virtual aloqaning intensivligi
3. Masofaviy aloqaning ustuvorligi (Bir vaqtning o'zida ko'pchilik bilan masofadan turib muloqot qilish imkoni)
4. Moddiy manfaatdorlik va vaqtni tejash.
5. Tezroq javob olish
6. Virtual aloqani barqaror saqlash
7. Virtual aloqa dam olish usuli emas, balki o'quv yoki mehnat faoliyatida vaqtni tejash vositasi va uzoqdagi odamlar bilan aloqada bo'lish imkoni
8. Shaxsiy bo'sh vaqtni tashkil etishga yordam beradi. (Undan aniq maqsad yo'lida foydalanilsagina...)

Yuqoridagi jihatlarni virtual muloqot jarayonining afzalliklari sifatida qabul qilsak, ayrim jihatlarga ko'ra real muloqot o'rnini to'laligicha qoplay olmasligi ko'rinadi. Ya'ni real (jonli) muloqotda suhbatdoshning reaksiyasini, hissiyotlarini his qilish, suhbatdoshni ko'rish mumkin. Shuningdek, jonli muloqotning ham ayrim xarakterli jihatlari mavjud. Ya'ni hissiyotlarni yashira olmaslik, suhbatni keskin to'xtatishning iloji yo'qligi va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, virtual muloqot real muloqot o'rnini bosa olmaydi, aksincha jonli muloqotda virtual muloqotdagi imkoniyatlarning mavjud emasligini ham kuzatishimiz mumkin.

Virtual aloqa kompyuter orqali, shuningdek smartfon orqali amalga oshiriladigan subyektlarning kommunikativ faoliyati hisoblanadi. Aslini olganda, har ikki muloqot turi (jonli muloqot va virtual muloqot) ham insonlar o'rtasidagi muloqotni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har ikki muloqot turi yutuqlari va yoki afzalliklariga ko'ra bir-birini to'ldiradi hamda kommunikantlarning muloqotni amalga oshirishida o'ziga xos qulayliklarni yaratib berishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, virtual aloqa yangi shakllangan alohida bir muloqot turi sifatida o'ziga xos jihatlari, shakllantiruvchi vositalari, shuningdek, ijtimoiy xarakteriga ko'ra tobora keng ommalashib, jamiyatda yetakchi mavqega ega bo'lib bormoqda. Internet tarmog'ida cheksiz muloqot



doirasi shakllandiki, bugungi kunda bu muloqotning o'ziga xos shallanish uslubini, lingvistik xususiyatlarini, afzalliklari, kamchiliklarini tadqiq etishga yetali asoslar yaratildi, deyish mumkin. Ya'ni, bugungi virtual olamdagi (o'zbek) muloqotchilarining ushbu jarayonda lisoniy va nolisoniy birliklardan, vositalardan qay tarzda foydalanish uslubini tahlil va tadqiq etish galdagi dolzarb vazifa sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Trach A. S. Osobennosti ispolzovaniya pismennoy rechi v seti Internet – diskurs.// Izvestiya YUFU (ujnny federalny universitet)Razdel I. Problemy sovremennoy filologii. – Taganrog, 2010. – S.34-39
2. Xalilova R. Virtual tizmda nutqiy diskursning sotsiomadaniy va pragmatik xususiyatlari.Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy- metodik jurnal. ISSN 2181-1709(P) 2021, № 5. –B. 78-79
3. Madaminova M. Internet diskursi – muloqot turi sifatida.VII Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyumu. ISBN: 978- 625-00-8481-6. Ankara, 2023. -S. 570.
4. Demyankov V.Z. Interpretatsiya, ponimanie i lingvisticheskie aspekty ix modelirovanie na – M.: Izd-vo Mosk. un-ta,1989.

